

“TASDIQLAYMAN”

**Xalqaro Nordik universiteti
rektori Sh.I. Mustafakulov**

2024 yil

**XALQARO NORDIK UNIVERSITETIDA
MAGISTRATURASIGA O‘QISHGA QABUL QILISH
TARTIBI TO‘G‘RISIDA NIZOMI**

Toshkent-2024

MAGISTRATURAGA TALABALARNI QABUL QILISH NIZOMI

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y. 9-son, 225-modda, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 41-son, 543-modda) va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyundagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, PF-4456-sonli “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi, PF-5763-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 190-son qarori, Xalqaro Nordik universitetining (keyingi o‘rinlarda **Universitet** deb yuritiladi) Magistraturaga talabalarni qabul qilish nizomining (keyingi o‘rinlarda **Nizom** deb yuritiladi) maqsadi, vazifalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, tashkiliy asoslarini belgilab beradi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Nizom “Ta’lim to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq oliy ta’lim muassasalarining magistraturasiga (keyingi o‘rinlarda magistratura deb ataladi) talabalarni qabul qilish tartibini belgilaydi.

1.2. Magistraturaga qabul tegishli ta’lim yo‘nalishi va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan belgilangan turdosh (magistraturaga qabul bo‘yicha) oliy ta’lim yo‘nalishlari ro‘yxati bo‘yicha bakalavr darajasiga yoki diplomli mutaxassis malakasiga ega bo‘lgan shaxslar o‘rtasida tanlov asosida amalga oshiriladi.

Bakalavr darajasiga yoki diplomli mutaxassis malakasiga ega bo‘lgan shaxslar turdosh ta’lim yo‘nalishlari ro‘yxatidagi ixtisosliklarning birida tanlovda qatnashish huquqiga egalar.

Tanlov har bir oliy ta’lim muassasasi bo‘yicha magistrlik mutaxassisligi, o‘qitish tili va shakliga ko‘ra alohida o‘tkaziladi. Ayrim magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha hududlar kesimida, shuningdek, kadrlar buyurtmachilari kesimida maqsadli qabul kvotalari tasdiqlangan taqdirda, tanlov har bir hudud, shuningdek, kadrlar buyurtmachilari (oliy ta’lim muassasasi) bo‘yicha alohida o‘tkaziladi.

1.3. Kirish sinovlari tegishli mutaxassislik o'qitiladigan tilda o'tkaziladi.

Magistraturada o'qitish tili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan qabul ko'rsatkichlari doirasida hujjatlar qabul qilinishiga qadar vazirliklar va idoralar tomonidan belgilanadi va Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

1.4. Abituriyentlar magistraturaga kirish sinovlarini Universitetda o'qiydigan tilda topshiradi.

1.5. Magistraturaga qabul qilish ishlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq joriy o'quv yili uchun tayinlangan oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi zimmasiga yuklanadi va magistraturaga qabul qilish ishlari bo'yicha qabul komissiyasi mas'ul kotibining o'rinbosari tayinlanadi.

1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari va nomli davlat stipendiyalari sovrindorlari, Zulfiya nomidagi Davlat mukofotlari sohibalari, shuningdek "Mard o'g'lon" davlat mukofoti sohiblari bo'lgan oliy ta'lim muassasalari talabalari va bakalavr darajasiga ega yoshlar Universitetning magistratura bosqichiga bakalavriatning ta'lim yo'nalishiga mos va turdosh mutaxassisliklarga tanlovdan tashqari alohida davlat grantlari asosida qabul qilinadilar.

1.7. Maqsad va vazifalar

1.7.1. Ushbu nizomning maqsadi – Universitetning magistratura mutaxassisliklariga talabalarni qabul qilish tartibini belgilashdan iborat.

1.7.2. Nizomning vazifalari:

- Oliy ta'lim tizimining qonuniy asoslari va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq qabul jarayonini tartibga solish;
- Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan adolatli qabul jarayonini ta'minlash;
- Abituriyentlar uchun kirish imtihon va suhbatlarni oshkorlik va shaffoflik prinsipi asosida tashkil etish;
- Qabul jarayonida talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholashning obyektiv va xolis usullarini joriy etish;
- Qabul jarayonida xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda (five bus stops) zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish.

1.8. Amaldagi huquqiy asoslar

1.8.1. Ushbu nizom quyidagi huquqiy hujjatlarga asoslanadi:

- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari;
- Oliy ta'lim muassasalarining ichki tartib-qoidalari va nizomlari.

2-bob. Xorijiy fuqarolarni o‘qishga qabul qilish

2.1. Magistraturaga xorijiy fuqarolarni qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xorijiy fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish va o‘qitish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2008-yil 4-avgustdagi 169-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

3-bob. Hujjatlarni qabul qilish tartibi

3.1. Magistraturaga kirish imtihonlari boshlanishidan bir necha oy avval, Universitet qabul komissiyasi magistraturaga qabul qilish muddatlari, mutaxassisliklar nomlari va ajratilgan o‘rinlar haqidagi axborotni belgilangan tartibda e’lon qiladi.

3.2. Magistraturaga kirishda abituriyentlar (bakalavr darajasiga ega bo‘lganlar, diplomli mutaxassislar Universitet qabul komissiyasiga hujjatlarni quyidagi bosqichlarda taqdim etadilar:

- Arizalarni qabul qilish;
- Hujjatlarni tekshirish va baholash, chet tillarni bilish sertifikatining bo‘lishiga ahamiyat qaratish;
- Kirish imtihonlarini va suhbatlarni tashkil etish va o‘tkazish;
- Natijalarni e’lon qilish va o‘qishga tavsiya etish.

3.3. Arizalarni qabul qilish va kirish imtihonlari jarayoni Universitetning rasmiy veb-saytida (<https://nordicuniversity.org>) e’lon qilinadi.

3.4. Qabul jarayoni davomida talabalar va ularning ota-onalari uchun maslahat va yordam markazlari tashkil etiladi.

4-bob. Arizalarni qabul qilish

4.1. Arizalarni qabul qilish muddati va tartibi Universitet tomonidan belgilanadi.

4.2. Abituriyentlar quyidagi hujjatlarni topshirishlari lozim:

Pasport yoki shaxsiy guvohnoma nusxasi;

Bakalavr diplomi va uning ilovasi;

3x4 o‘lchamdagi 6 dona rangli fotosurat;

Chet tili bo‘yicha sertifikat (agar bo‘lsa, aks holda o‘qishni tamomlagunga qadar olishi talab qilinadi).

4.3. Hujjatlar qabul ofislarida yoki onlayn platformalar orqali topshirilishi mumkin.

4.4. Hujjatlarni qabul qilish jarayonida hujjatlar to‘liqligi va haqiqiyliги tekshiriladi.

5-bob. Kirish imtihonlari

5.1. Magistraturaga kirish sinovi umumiy ballari quyidagilardan tashkil topadi: magistraturaga kirishda tanlagan mutaxassislik bo'yicha bilim darajasini belgilovchi maxsus fanlardan sinov o'tkaziladi (baholash mezonini 0 ball dan 100 ballgacha tashkil etadi);

Universitet bitiruvchisining umumiy reytingi yoki o'zlashtirish ko'rsatkichi (o'zlashtirish tegishli ravishda 50 ball dan 100 ballgacha bo'lgan diapazonda yuzdan bir aniqlikda, o'zlashtirgan fanlarining o'rtacha bali orqali ifodalanadi) aniqlanadi.

Abituriyentlar Xalqaro tan olingan chet tilini bilish darajasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024 yil 14-iyundagi "2024/2025 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklariga hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim ixtisosliklariga hujjat topshirishda talab etiladigan xorijiy tiilarni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro'yxati va ularning darajalarini tasdiqlash to'g'risida" 211-sonli buyrug'iga binoan tegishli yo'nalishlar uchun nazarda tutilgan darajadagi sertifikat taqdim etishlari zarur yoki o'qish muddati tugagunga qadar ushbu sertifikatga ega bo'lishlari shart.

Magistraturaga o'qishga kirishda eng ko'p (maksimal) to'planishi mumkin bo'lgan ball – 100 ni tashkil etadi.

5.2. Kirish imtihonlari Universitet rahbariyatining qaroriga ko'ra tegishli fanlardan test, "yozma va suhbat" yoki "five bus stops" (bunda har bir bekatda fan mutaxassisi, psixolog, pedagoglar savol-javob tarzida abituriyentning bilimini pedagogik mahoratini baholaydilar) shaklida amalga oshirilishi mumkin.

5.2. Kirish imtihonlarini o'tkazish belgilangan fan dasturlarini Universitetning rasmiy saytida e'lon qilinadi.

Kirish imtihonlari o'tkazilishiga qadar, Universitet qabul komissiyasi tomonidan tegishli fanlari bo'yicha agarda zarurat bo'lsa maslahatlar tashkil etiladi. Kirish imtihonlari jadvali va tarkibi Universitet tomonidan tasdiqlanadi va e'lon qilinadi.

5.4. Kirish sinovlarini o'tkazish uchun rektorning buyrug'i bilan har bir sinov fanlari bo'yicha komissiyalar tashkil etiladi.

5.5. Sinov fanlari bo'yicha komissiya tarkibi oliy ta'lim muassasasining yetuk va tajribali professor-o'qituvchilari tarkibidan tashkil etiladi. Zarur hollarda uning tarkibiga boshqa oliy ta'lim muassasasining o'qituvchilari ham jalb etilishi mumkin.

5.6. Sinov fanlari bo'yicha komissiya raislari zimmasiga quyidagi mas'uliyat yuklanadi:

kirish sinovlari sifatli o'tkazilishini ta'minlash maqsadida komissiya tarkibiga malakali, talabchan va adolatli professor-o'qituvchilarni jalb etish;

komissiya a'zolarining vazifalarini belgilash (maslahatlar berishni tashkil etish, imtihon savollarini tuzish, javoblarni baholash mezonlarini ishlab chiqish va boshqalar); sinov jarayoniga rahbarlik qilish va nazorat etish.

5.7. Fanlar bo'yicha sinovlarni o'tkazish tartibi (o'qituvchilarni auditoriyalarga taqsimlash, javoblarni shifrlash hamda tekshirish va hokazolar) oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan belgilanadi.

5.8. Kirish sinovlarining natijalari, baholash mezonlariga muvofiq ball bilan belgilanadi va qaydnomalarga kiritiladi. Qaydnomalar fan bo'yicha imtihon komissiyasining a'zolari, qabul komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan imzolanadi va qabul komissiyasining raisiga taqdim etiladi.

5.9. Universitetga o'qishga qabul qilingan abituriyentlarning sinov ishlari ularning shaxsiy hujjatlar yig'ma jildlariga tikib qo'yiladi.

O'qishga qabul qilinmaganlarning sinov ishlari 6 oy davomida saqlanadi, so'ng belgilangan tartibda yo'q qilinadi.

5.10. Magistraturaga mutaxassislik bo'yicha maxsus fandan kirish sinovi uchun belgilangan maksimal ballning 50 foizi va undan kam ball to'plaganlar, shuningdek, belgilangan muddatlarda kirish sinovlariga kelmaganlar navbatdagi kirish sinoviga kiritilmaydi hamda magistraturaga qabul qilinmaydi.

5.11. Universitetda belgilangan tartibda apellatsiya (norozilik) komissiyasining ishi tashkil etiladi.

Abituriyent sinov natijasidan norozi bo'lgan taqdirda, sinov natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida sinov ishini apellatsiya qilish haqidagi ariza bilan oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi raisi yoki apellatsiya (norozilik) komissiyasi raisiga murojaat etishi mumkin. Apellatsiya haqidagi arizani ko'rib chiqish muddati ikki kundan oshmasligi lozim.

6-bob. Abituriyentni to'lov-kontrakt asosida qabul qilish va o'qish uchun to'lov tartibi

6.1. Magistraturaga to'lov-kontrakt asosida qabul qilish Universitet tomonidan belgilangan qabul kvotalari doirasida yagona qabul qoidalari asosida kirish sinovlarining ballar reytingi bo'yicha amalga oshiriladi.

Abituriyentlarni to'lov-kontrakt asosida magistraturaga tavsiya etish to'g'risida Universitet qarori qabul qilingandan keyin oliy ta'lim muassasasi bilan yuridik yoki jismoniy shaxslar o'rtasida belgilangan tartibda kontrakt rasmiylashtiriladi.

Belgilangan namunadagi kontrakt blankalari Universitet qabul komissiyasi tomonidan sinov natijalari e'lon qilingan kundan boshlab beriladi va yuridik shaxslar uchun rahbar va bosh buxgalter tomonidan imzolangan holda 3 nusxada, jismoniy shaxslar uchun 2 nusxada rasmiylashtiriladi.

Davlat komissiyasi tomonidan to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etilgan abituriyentlar uchun to'lov har yili kontrakt shartlarida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshiriladi.

Kontrakt shartlari va tomonlarning majburiyatlari, ularni amalga oshirish tartibi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

7-bob. O‘qishga qabul qilish tartibi

7.1. Kirish imtihonlarida (test/og‘zaki/yo‘zma shakllarda) yuqori ball to‘plagan abituriyentlar magistraturaga o‘qishga tavsiya etiladi.

7.2. O‘qishga tavsiya etilgan abituriyentlar ro‘yxati e‘lon qilinadi va ularga o‘qishga kirish to‘g‘risidagi rasmiy xat yuboriladi.

7.3. Universitet magistraturasiga qabul qilish to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan o‘qish uchun belgilangan mablag‘ miqdori 15-sentabrdan kechiktirilmay, belgilangan tartibda o‘tkazilgandan so‘ng, oliy ta‘lim muassasasining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

7.4. O‘qishga qabul qilingan talabalar o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tishlari va o‘quv yiliga tayyorlanishlari lozim.

7.5. Talabalarga kontrakt asosida o‘qish shartlari va to‘lov muddati to‘g‘risida to‘liq ma‘lumot beriladi.

8-bob. Shikoyatlar va munozaralar

8.1. Abituriyentlar qabul jarayoniga oid shikoyatlarini qabul komissiyasiga yozma ravishda taqdim etishlari mumkin.

8.2. Shikoyatlar komissiya tomonidan ko‘rib chiqiladi va natijalar abituriyentlarga ma‘lum qilinadi.

8.3. Shikoyatlar maxfiy saqlanadi va faqat tegishli komissiya a‘zolari tomonidan ko‘rib chiqiladi.

8.4. Shikoyatlar ko‘rib chiqilish jarayoni davomida abituriyentlar bilan muloqotda bo‘lish va ularga tushuntirishlar berish muhimdir.

9-bob. Yakunlovchi qoida

9.1. Mazkur Nizomda belgilangan masalalar bo‘yicha nizolar qonunchilik hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

9.1. Ushbu Nizom universitetda magistraturaga o‘qishga qabul qilish jarayonini tartibga soladi.

9.2. Mazkur Nizomda ko‘zda tutilmagan holatlar bo‘yicha qaror qabul qilish vakolati universitet Kengashiga yuklatiladi.

9.3. Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish universitet Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.